

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI TARAQQIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

*Samarqand davlat pedagogika
instituti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Tuliboyeva Gulsevar Zafar qizi
Ilmiy rahbar: O'zbek tili va
adabiyoti kafedrası assistenti
Yusupov Sardor Shodi o'g'li*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy sun'iy intellekt texnologiyalarning zamonaviy adabiy til taraqqiyotiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar tilning rivojlanish jarayoniga yangi imkoniyatlar bilan birga muayyan muammolarni ham olib kirayotgani yoritiladi. Maqolada sun'iy intellektning adabiy til me'yorlariga ta'siri, leksik, boylikning kengayishi kabi jihatlar ilmiy-nazariy asosda ko'rib chiqiladi.

Kirish so'zlar. Sun'iy intellekt, adabiy til me'yorlari, elektron lug'atlar, iboralar, imlo.

Sun'iy intellekt – bu informatikaning alohida sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlari tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima qilish va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi¹. Sun'iy intellekt kompyuterlarga o'zlarining tajribalarini o'rganish berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi². Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga “o'rganish”mumkin.

Sun'iy intellekt texnologiyalari barcha sohada shiddatli rivojlanib, inson hayotiga dadil kirib bormoqda. U ko'plab sohada inqilobiy o'zgarishlarga vosita sifatida inson hayotini yaxshilash, samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirishga yordam berayotir. Ayniqsa, ilmiy muommolarni hal etish borasida SI sharofati bilan mislsiz imkoniyatlar vujudga keldi. Ammo shu bilan birga, inson ijodkorligi va mas'uliyati – inson omilining ahamiyati susayib ketadigandek. Muommo shundaki, bugungi kunda SI ommalashuvi sharoitida ilm-fan sohasida olimlarning tadqiqot doiralari ma'lum darajada cheklangandek tuyuladi.

¹Mamatov N. Sun'iy intellekt vositalarini ta'limni nazorat qilish va baholashda qo'llash.

²Ergashev Sh. Sun'iy intellekt va uning insoniyat hayotida tutgan o'rni.

Zamonaviy dunyoda texnologik taraqqiyotning jadalligi ta'lim sohasiga yangicha usullarni olib kirib, o'qitish jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini oshirmoqda. Xususan, sun'iy intellektning rivojlanishi va uning ta'limdagi imkoniyatlari pedagogik faoliyatini tubdan o'zgartirishga zamin yaratmoqda.

Adabiy til esa o'zbek milliy tilining oliy formasi – ishlov berilgan me'yorlashtirilgan, millat vakillarining barchasi uchun umumiy bo'lgan barqaror shaklidir³. Tarix va taraqqiyot jarayonida adabiy til o'zgarib, takomillashib boradi. Masalan, Alisher Navoiy davridagi o'zbek adabiy tili hozirgi zamon o'zbek adabiy tilidan farq qiladi.

Bugungi kunda sun'iy intellektidan foydalanib, adabiy tilni ommalashtirish va standartlashtirish uchun imkoniyatlar kengaymoqda. SI asosidagi dasturlar imlo uslub va grammatik xatolarni aniqlab adabiy til me'yorlariga rioya etishni yengillashtirmoqda. Bu esa yozma nutq saviyasining oshishiga xizmat qiladi. Masalan, SI dan bitta gap aytib, uni grammatik xatosini yoki imloviy jihatdan xatosini topib ber desa, yaxshi tushuntirib, ko'rsatib beradi. Bundan tashqari, sun'iy intellekt yordamida insho, maqola, she'r yoki hikoya yozishda SI ijodkorlarga yordamchi vosita bo'lib, g'oya va ifoda variantlarini taklif etib kelmoqda. Shuningdek, elektron lug'atlar, korpuslar va tarjima tizimlari orqali kam ishlatiladigan so'zlar, iboralar va uslublarni qayta muomalaga kiritishi mumkin. Bunga misol qilib, "sarsari", "mahdud" kabi so'zlarni aytishimiz mumkin. Bu so'zlar hozirgi kunda umuman ishlatilmaydi va bu so'zlarning adabiy ma'nolari haqida sun'iy intellekt aytib bera oladi. Sarsari so'zining ma'nosi "bekorchi" degani va "mahdud" so'zining ma'nosi esa "cheklangan" yani bu so'z koproq ilmiy matnlarda uchragan.

Lingvistika sohasida SI ko'plab an'anaviy ishlarni avtomatlashtirishi va soddalashtirishi natijasida lingvistlar bajaradigan ishlarning katta qismini o'z zimmasiga oldi⁴. Avtomatik tarjima dasturlari, Google translate, QTranslate, Microsoft Bing, Yandex Translate, Baidu Translate va DeePL oddiy matnni bir tildan boshqasiga osonlik bilan o'giradi. Bu dasturlar SI o'rganish texnologiyasidan foydalanib, tilni tushunish va tarjima qilish jarayonini soddalashtiradi.

Tarjima dasturlarining rivojlanishi tilshunoslik tadqiqotlarini osonlashtirgan bo'lsa-da, ularning ayrimlari uchun insonning roli hali ham muhimligicha qolmoqda. Tarjima jarayonining nazariy asoslarini o'rganish semantik va sintaktik farqlarini tushunishga yordam beradi. Tarjima dasturlari kontekstni to'g'ri anglashda, yetarli baza bo'lmasa, qiyinchiliklarga duch keladi, ayniqsa madaniy kontekstlarga daxldor masalalarda. Inson bajaradigan tilshunoslik tadqiqotlari davom etadi, zero, ular tilni chuqurroq tushunish va tarjima jarayonini takomillashtirishda SIga yordam beradi.

³Сайфуллаева Р.Р. Хозирги узбек адабий тили. Тошкент, 2009.

⁴Muxitdinov M. Sun'iy intellekt va uning imkoniyatlari

Tilshunoslar tadqiqot olib borishi mumkin bo'lgan muammolar sifatida “so'zlarning ko'p ma'noliligi va ularning tarjima-dagi ta'siri”, “til birliklari va ularning madaniy xosligi”, sinonim va antonim o'rtasidagi farqlarni ko'rsatish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, un'iy intellekt adabiy til uchun kuchli yordamchi bo'la oladi, ammo u inson ijodini to'liq o'zlashtira olmaydi. Eng maqbul yo'l – SI imkoniyatlaridan oqilona foydalanib, uni ijodkor tafakkuri va milliy an'analar bilan uyg'unlashtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov N. Sun'iy intellekt vositlarini ta'limni nazorat qilish va baholashda qo'llash.
2. Muxitdinov M. Suniy intellekt va uning imkoniyatlari.
3. Ergashev Sh. Suniy intellekt va uning insoniyat hayotida tutgan o'rni.
4. Sayfullayeva R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2009.